

“TASDIQLAYMAN”



Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektori, suhbat

komissiya raisi

S. Islamov

02 02 202_ yil

Agrar sohadagi oliy ta'lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta'lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali o'qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi suhbat savollari ro'yxati

TARIX fanidan suhbat savollari

1. Bitiklarni o'rganuvchi fan qanday nomlanadi?
2. O'rta asrlarda Suy, Tan, Sun va Yuan kabi sulolalar qaysi davlatda hukmronlik qilgan?
3. Amir Temur qachon tavallud topgan?
4. Misrdan oqib o'tib O'rtayer dengiziga quyiladigan daryoni toping?
5. Qaysi hukmdor Buxoro xonligiga asos solgan?
6. Qadimda "Mahabharat" va "Ramayana" kabi dostonlar qaysi davlatda paydo bo'lgan?
7. XIX asr o'rtalarida Toshkent shahrining nechta darvozasi bo'lgan?
8. AQSHning birinchi Prezidenti kim bo'lgan?
9. 1917-yil noyabrda Qo'qonda jadidlar tomonidan qanday davlat tuzilgan?
10. XVI asrda Zahiriddin Muhammad Bobur qayerda Boburiylar davlatini tuzgan?
11. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan qonunni toping?
12. Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniya rahbari kim bo'lgan?
13. Tarix fani otasi kim ?
14. Tarixda "Temir kansler" nomi bilan mashhur bo'lgan odamni toping?
15. 1365-yil Amir Temur va mo'g'ullar o'rtasida qanday jang bo'lgan?
16. 1601-1756-yillar Buxoro xonligida qaysi sulola hukmronlik qilgan?
17. 1919-yil Versal tinchlik shartnomasiga ko'ra Birinchi jahon urushining boshlanishiga yagona javobgar deb qaysi davlat e'lon qilindi?
18. Turkiston general-gubernatorligi qachon tuzilgan?
19. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining birinchi poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
20. 1206-yil kim Mo'g'ullar davlatiga asos solgan?
21. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi qaysi?
22. Qozog'iston Respublikasining birinchi prezidenti kim bo'lgan?
23. XIV asrda mo'g'ullarga qarshi Sarbadorlar harakati qaysi shaharda bo'lgan?
24. Buxoro amirligida mol-mulkdan olinadigan soliq qanday nomlangan?

25. Movarounnahrda Mo'g'ullar hujumi davrida Xo'jandni kim mudofaa qilgan?
26. 1873-yil Rossiya va Xiva xonligi o'rtasida qanday shartnoma imzolangan?
27. 1977-yil qaysi O'zbekiston rahbari davrida Toshkent metropoliteni qurilgan?
28. Yurtimizda 2008-yil qanday nomlangan?
29. 2014-yil qaysi davlatda Rajab Tayyip Erdo'g'an prezidentlik saylovlarida g'alaba qozongan?
30. Miloddan avvalgi III asrda Davan davlati qayerda tashkil topgan?
31. Parvon dashtidagi jangda kim mo'g'ullar ustidan yirik g'alabaga erishadi?
32. Qo'qon xonligi asoschisi kim?
33. 2000-yil saylovlarda Vladimir Putin qaysi davlat prezidenti etib saylangan?
34. "Teatr – bu ibratxonadir" degan O'rta Osiyo jadidlar otasi kim edi?
35. O'zbek xotin – qizlarining paranjisini yechish va ozodlikka chiqarishga qaratilgan harakat tarixda qanday nomlangan?
36. 1991-yil SSSR parchalangandan keyin Rossiya, Ukraina va Belorussiya tomonidan qanday tashkilot tuzilgan?
37. Yurtimizda 2002-yil birinchi qaysi xorijiy davlat OTM filiali ochilgan?
38. 1700-1721-yillar Rossiya va Shvetsiya o'rtasidagi urush qanday nomlangan?
39. Birinchi jahon urushi nechanchi yillar bo'lib o'tgan?
40. Miloddan avvalgi II asrda paydo bo'lgan savdo yo'lini toping?
41. Ilk o'rta asrlarda "qishloq hokimi" deb atalgan katta yer egasini toping?
42. 1945-yil Yaponiyaga qaysi davlat atom bombalarini tashlagan?
43. Buxoro amirligining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
44. Birinchi Turkiston general-gubernatorini toping?
45. Milodiy I asrda Iso Masih qaysi dinga asos solgan?
46. Buxoro amirligining so'nggi hukmdorini toping?
47. 2009-yil yurtimizdagi qaysi shaharning 2200-yillik yubileyi nishonlangan?
48. 1492-yil Xristofor Kolumb tomonidan qaysi qit'a kashf etilgan?
49. Ahamoniy hukmdor Doro I ga qarshi Marg'iyonada kim qo'zg'olon ko'targan?
50. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) qaysi shaharda tug'ilgan?
51. Mo'g'ullarga qarshi kurashgan so'nggi xorazmshohni toping?
52. 1187-yil Quddusni salib qo'shinlaridan ozod etgan hukmdorni toping?
53. Shayboniylar davrida xonning farzandlariga ta'lim tarbiya berish ishlari bilan kim shug'ullangan (lavozim) ?
54. VI asrda Vizantiya imperiyasi kimning davrida qudratli davlatga aylandi?
55. XX asr boshida Abdulla Avloniy qaysi hududda jadidchilik guruhlariga rahbarlik qilgan?
56. 1994-yildan hozirgi kungacha Belarussiya prezidenti bo'lib kelgan shaxsni toping?
57. Anaxita, Ahuramazda, Mitra kabi xudolar qaysi dinga tegishli?
58. Turkiston Muxtoriyatida tashqi ishlar vaziri kim bo'lgan?
59. Yurtimizda Amir Temurning 660-yillik yubileyi qachon nishonlangan?

60. Afrosiyob qaysi shaharning qadimgi nomi hisoblanadi?
61. 1804-yil Napoleon Bonapart qaysi davlatni imperiyaga aylantirgan?
62. VII-VIII asrlar qaysi xalq islom dinini yurtimizga olib kelgan?
63. "Qrim" urushida Rossiya qaysi davlatdan mag'lubiyatga uchragan?
64. 1480-yil O'zbek ulusi davlatini kim qayta tiklagan?
65. Rossiya tomonidan Toshkent shahri qachon bosib olingan?
66. Qaysi hukmdor o'rta asrlarda "*Dunyo mo'jizasi*" degan nom olgan?
67. G'aznaviylar davlatiga kim asos solgan?
68. 2000-yildan boshlab respublikadagi oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida qanday sport musobaqa o'tkazilib kelinmoqda?
69. 1877-yil topilgan Amurdaryo xazinasi hozirda qayerda saqlanmoqda?
70. Amir Temur davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
71. 1688-yil Angliyada sodir bo'lgan inqilob tarixda qanday nomlanadi?
72. Qaysi Rim papasi "Oy o'z yog'dusini quyoshdan olganidek, qirol hokimiyati o'z jilosini papalikdan oladi" degan so'zlarni aytgan?
73. 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan Temuriy hukmdorni toping?
74. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududlari necha bosqichda bosib olingan?
75. 1606-yil kashf qilingan qaysi qit'a "janubiy yer" deb nomlangan?
76. Turkiston Muxtoriyati necha kun faoliyat ko'rsatgan?
77. Tarixda "Yuz yillik urush" qaysi davlatlar o'rtasida bo'lib o'tgan?
78. O'zbekiston qachon Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga a'zo bo'lgan?
79. XVI asrda Ivan IV Grozniy qaysi davlatda hukmronlik qilgan?
80. AQSHda ketma-ket 4 marta prezident bo'lib saylangan shaxsni toping?
81. Mil.avv. 530-yil Ahamoniylar hukmdori Kir II kim bilan bo'lgan jangda vafot etgan?
82. VII asrdan boshlab yurtimiz qanday nomlana boshlagan?
83. 1811-yil qoraqalpoqlarni bo'ysindirgan Xiva xonini toping?
84. Drakon, Salon, Perikl kabi hukmdorlar qadimda qaysi shaharni boshqargan?
85. Mang'itlar sulolasidan bo'lgan Amir Muzaffar qaysi davlatda hukmronlik qilgan?
86. Mil.avv I asrda Galliyani bosib olgan Rim sarkardasini toping?
87. 1929-yilda qaysi hudud O'zbekiston SSR tarkibidan ajralib chiqqan?
88. Birinchi jahon urushida Rossiya, Buyuk Britaniya va Fransiya qanday ittifoqqa birlashgan?
89. 1940-yil Buyuk Britaniya Bosh vaziri bo'lgan shaxsni toping?
90. Yurtimizda qachon "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilinadi?
91. Yangi tosh davri qanday nomlanadi?
92. Yevropada "Avitsenna" deb ulug'langan allomani toping?
93. 1861-1865-yillarda qaysi davlatda fuqarolar urushi bo'lib o'tgan?
94. 1402-yil Amir Temur va Sulton Boyazid o'rtasida qanday jang bo'lgan?
95. Turkiston general-gubernatorligining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?

96. “Yo Vatan, yo shahafli o‘lim” shiori ostida xalqni mo‘gullarga qarshi janga chorlagan shayxni toping?

97. “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘olonining markazi bo‘lgan qal’ani toping?

98. Qadimgi Misr podsholari nima deb atalgan?

99. 2003-yil noyabrda tashkil etilgan partiyani toping?

100. 1441-yil Alisher Navoiy qaysi shaharda tug‘ilgan?

Suhbat komissiyasi kotibi



N.Nematov